

A STRANGE IMAGE IN YASSAVI'S WISDOM

Bahronova Dilnora Alisher qizi

Student of the Faculty of Philology of Bukhara State University

Phone number: +998914000821

Eshonkulova Feruza Husniddin qizi

Student of Tashkent State Agrarian University named after Alisher Navoi

Phone number: +998913100987

Annotation: This article comments on the image of a stranger in the wisdom of Ahmad Yassavi and analyzes his wisdom. The character and virtues of Muhammad (peace and blessings of Allaah be upon him), the symbol of poverty and alienation, were glorified and his views on alienation were analyzed. Ahmad Yassavi's Purmano wisdom has been widely applied based on the sources of the Qur'an and Hadith.

Keywords: Ahmad Yassavi, Devoni Hikmat, Miraj, Rasulullah (saas), Holy Qur'an, stranger, poor, oppressed, heart

YASSAVIY HIKMATLARIDA G`ARIB OBRAZI

Bahronova Dilnora Alisher qizi

BuxDU filologiya fakulteti talabasi

Telefon raqami : +998914000821

Eshonkulova Feruza Husniddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO`TAU talabasi

Telefon raqami : +998913100987

Annotatsiya : Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlaridagi g`arib obrazi xususida fikr-mulohaza bildirilib , hikmatlari tahlil qilingan. Faqrilik va g`ariblik timsoli bo`lgan Muhammad (s.a.v)ga xos xususiyat va fazilatlar ulug`langan va uning g`ariblikka oid qarashlari tahlilga tortilgan. Ahmad Yassaviyning purma`no hikmatlari Qur`oni Karim va Hadisi sharif manbalari asosida keng tatbiq qilingan.

Kalit so`z : Ahmad Yassaviy , “Devoni hikmat” , Me’roj , Rasululloh (s.a.v) , Qur’oni Karim , g`arib , faqir, mazlum , ko`ngil

Sulton Xo`ja Ahmad Yassaviyning hikmatlari biz uchun katta didaktik merosdir. Unda insonning eng katta dushmani bo`lgan nafsga qarshi murosasiz kurashlar , nafsnii tiyish masalalari yoritilib , yolg`onchilik , munofiqlik , hirs , tamagirlilik , kibrilik nomunosib insoniy illatlar qattiq qoralangan hamda o`tkinchi hoy-u havas va mol-dunyoga ko`ngil bermaslikka da`vat etiladi. Shu bilan birga Alloh nomin zikr qilish , kecha-yu kunduz taqvoda bo`lish , g`ofillikdan qutulish , insonni komillikka yetaklovchi , ruhini yomon illatlardan forig` qiluvchi yuksak fazilatlarga ega bo`lish , Haq yodi ila yonish kabi da`vatlarni, oshiq , obid va oriflar xususida mulohazalarni hamda g`arib, faqir va yetimlar ko`ngliga ozor bermaslik singari nasihatlarni “Devoni hikmat”dagi to`rtliklar misolida ko`rishimiz mumkin. Ahmad Yassaviy tariqatida ham , o`z ijodida ham inson zotini sharif darajasida ulug`laydi va insonlarni shu ulug`likka munosib bo`lishga chariqaradi.

Yassaviy ijodida g`arib , faqir va yetim kabi obrazlari asosiy o`rin egallaydi va bu obrazlarni shoir juda qadrlaydi. Hikmatlarida g`arib, faqir va yetimlarning ko`nglini og`ritmaslik , ularga qattiq so`z aytmaslik va ularni zaif hisoblab , turli malomat , bo`hton toshlarini otmaslik kerakligini uqtiradi :

G`ariblarni ko`rgon yerda og`ritmangiz

G`ariblarga ochig`lanib so`z qotmangiz.
 Zaif ko`rub g`ariblarga tosh otmangiz ,
 Bu dunyoda g`ariblikdek balo bo`lmas.

[Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – T.: G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. 1991, 8-b. Bundan keyingi misollar ham shu kitobdan olinadi va tegishli betlar qavs ichida ko`ratiladi]

G`ariblar va yetimlarning ko`ngli siniq ko`ngildur, siniq ko`ngillar esa Allohning taxtidur. Ularning qalbiga ozor berish va ranjitish Alloh taxtiga bolta urmoqlikdur. Shuningdek, musulmon boshqa bir musulmonni ranjitmaydi, aksincha ularning ko`nglini ko`tarib , joniga payvand va dardiga darmon bo`ladi. Doim ularning diydoriga tashna bo`lib , ularga yaxshilik qilish payida yuradi. Musulmonning haqiqiy farzlaridan biri shuldir. Bunday amrima`ruflar , yaxshilikka buyurishlar Qur`oni Karimning qator sura va oyatlaridan o`rin olgan. Masalan, “Mo`minlar , hech shak - shubhasiz, og`a-inilardir. Bas, sizlar ikki og`a-ningizning o`rtasini o`nglab qo`yinglar” (“Hujurot” surasi 10-oyat) yoxud “Mo`min mo`min uchun bir-birini bog`lab turgan bino toshlari kabitdir”. Yassaviy xuddi shu mazmundagi sura va hadislarni o`z hikmatlariga obrazli qilib olib kiradi :

So`zni aytdim har kim bo`lsa diydor talab ,
 Jonni jonga payvand qilib , ragni ulab
 G`arib , faqir , yetimlarni ko`nglin ovlab ,

Ko`ngli qattiq xaloyiqdan qochdim mano. (41-bet)

Ko`ngli qattiq xaloyiqdan qochishni ikki xil tahlil qilish mumkin : biri – shoir o`zini g`ariblar ko`ngliga ozor berishdan , ko`ngli qattiq va dilozorlikdan yiroqda ekanin aytib o`tmoqchi ; ikkinchisi – shunday badfe`l , dilozor xalqdan yiroqlashib , uzlatga chekinishi nazarda tutilgan. Lekin har ikki qarashda ham shoir dilozorlikdan yiroqda ekanligini , yetim va g`ariblar qalbini og`ritishdan nafratlanishini yaqqol ifoda etganini ko`rishimiz mumkin. Mazlumlarning ko`nglini olmoqlik ham juda ulug` ishdur. Chunki Hazrat Alisher Nasvoiy aytganlaridek , Ka`batulloh olam elining sajdagohi , inson qalbi esa Alloh taolonning jilvagohidir.

Yassaviy ijodida g`ariblik va faqirlilik yuqori rutabaga ko`tariladi. Hatto Payg`ambarimiz Muhammad mustafo (s.a.v) ham g`arib , faqir va yetimlarning holing so`rab, tashvishlarini yengillashtirgan tunlarining o`zidayoq Me`roj chiqdilar , deb ta`kidlab o`tadi shoir. Payg`ambarimizning me`rojdan qaytib ham g`arib , yetimlarni izlab yurgani esa ularni Alloh dargohida ham e`tibori baland va darajasi yuksak ekanligidan dalolat beradi. Qur`oni Karimda ham “faqirlilik” va “faqirlar” lafzi moddiy ma`noda o`n uch marta takrorlangan. Bularning ba`zisi barchaning Alloh taologa faqir (muhtoj) ekanini bayon qilsa , ba`zilari shaytonning odamlarga faqirlikni va`da qilishini bayon qiladi. G`arib va yetimlarning darajasini , qadrini bilgan Yassaviy ham yaxshilik istab , yetim va g`ariblarni izlab ketdi :

G`arib, faqir , yetimlarni Rasul so`rdi ,
 O`shal tuni me`roj chiqib , diydor ko`rdi.
 Qaytib tushib g`arib , yetim izlab yurdi

G`ariblarni izin izlab tushdim mano. (41-bet)

Faqirlilikning yuksak namunasi sifatida Muhammad Mustafo (s.a.v) e`tirop etiladi. U hali tug`ilmasdanoq otadan yetim qolgan , keyin esa onasidan ham ayrilib , chin yetimga aylanadi. Umr bo`yi faqirona umr kechiradi , g`ariblik ichra yashaydi. Ahmad Yassaviy ham buni ko`pgina hikmatlari orqali Muhammad (s.a.v)ni g`ariblik ichra mehnat tortib , mashaqqat va sinovlarda toblanib hamda bu sinovlarda go`zal sabr ko`rsatib rasul bo`ldi , Allohning habibi bo`ldi. Chunonchi , Payg`ambarimiz aytmaganmidilar faqirligim mening faxrimdir , deb. Aynan shu birgina gap ham Yassaviy bayti uchun asos bo`la oladi. Binobarin , mazlumlar , g`arib , faqir va yetimlar Alloh nazdida ulug` kishilardir. Chunki ularda insoniylik fazilatlari jamlangan , ular kamtarlik , xokisorlik va go`zal sabr timsolidir.

Rasululloh (s.a.v) marhamat qiladilar : “Uch narsaga qasam ichaman : 1.Bandaning moli sadaqa bilan nuqsonga uchramas ; 2. Banda bir zulmga uchrasha-yu unga sabr qilsa , albatta , Alloh taolo uning izzatini ziyoda qilur ; 3.Banda tilanchilik eshigini ochsa , albatta , Alloh taolo unga faqirlilik eshigini

ochar". Rasulullohga ham juda ko`p zulm yetgan va u umri davomida eng ko`p qiyalgan mazlumlardan biridir. Uning uchun ham faqirlilik eshigi ochilgan. Yassaviy "Devoni hikmat"da Muhammad (s.a.v)ning habib va rasul bo`lishini ham g`ariblik va faqirlilik natijasidandur deb ko`rsatadi :

Madinag`a rasul borib bo`ldi g`arib ,

G`ariblikda mehnat tortib bo`ldi habib. (42-bet)

Yassaviy har doim mazlumlar , g`arib va zaiflar tomonida turib , ularni himoya qiladi. Mazlumlar sha'nini sharafllovchi hikmatlar bitdi va ularni el orasida qadrli qildi. Insonlarni mazlum xalqqa doim yordam berishga undadi. Ularga qo`ldan kelgunicha ehson qilishni , ular uchun hatto jon fido qilishga ham tayyor turishni , bu g`arib , yetim va faqirlarni , ya`ni jabr ko`rgan , mazlum insonlarni ko`nglini ko`tarib , ularni shodmon qilishga da`vat etadi hamda shu mavzuda ko`plab hikmatlar yozib , el uchun manfaatli bo`lgan pand-nasihatlar aytgan. Undagi har bir nasihat Qur'oni Karim yoxud Hadisi Sharif "Va Qur'on bilan pand-nasihat qiling ! Zero, u pand-nasihatga naf yetkazur" ("Vaz-zoriyot" surasi 55-oyat) va "Alloh ulardan rozi bo`lgan , ular ham Allohdan rozidirlar" ("Moida" surasi 119-oyat).

Muhammad Mustaf'o (s.a.v) insonlarni turli fazilat va illatlariga ko`ra guruhlarga bo`lib , shunday dedilar :"Men sizlarga bir hadis aytaman , yodlab olinglar. Albatta , dunyo 4 nafarnikidir , ya`ni dunyoda 4 xil toifali inson mavjud : 1. Bir bandaga Alloh taolo molini ham , ilmini ham rizq qilib bergan. U banda bu Robbisiga taqvo qilur. Siylayi rahm qilur. Undagi berilgan rizqdan Alloh taoloning haqqini bilur. Bu eng afzal darajadir.

2. Bir bandaga Alloh taolo ilmni rizq qilib beradi-da , ammo molni rizq qilib bermaydi. U sof niyat bo`lib , agar molim bo`lganida , falonchi saxiyning amalini qilar edim , deydi. U niyatiga yarasha oladi. Ikkalasining ajri barobar.

3. Bir bandaga Alloh taolo molni ham rizq qilib beradi , biroq ilm bermaydi. U ilmsizligi tufayli molni to`g`ri kelgan joyga sochadi. U bilan Parvardigoriga taqvo qilmaydi , ya`ni Xudodan qo`rqmaydi. Siylayi rahm qilmaydi. Undagi berilgan rizqdan Alloh taoloning haqqini bilmaydi. Bu eng yomon darajadir.

4. Bir bandaga Alloh taolo molni ham , ilmni ham rizq qilib bermaydi. U esa agar molim bo`lganida edi , falonchining amalini qilar edim , ya`ni falonchi fosiqning ishini qilar edi , deydi. U niyatiga yarasha oladi. Ikkovining gunohi barobar".

G`arib , yetim va faqirlar uchun ikkinchi toifadagi insonlardir. Haqiqatdan ham , ularning qalbi doim yaxshilikka intiladi va o`zining ahvoli undan og`ir bo`lsa ham , unga sadaqa va ehson berib , uning dardiga darmon bo`ladi. Ular sof niyatli kishilardir va bu amallarning ajri ulug`dir. Uchinchi va to`rtinchi toifa vakillari esa mazlum, ojiz, yetim aholiga zulm va zo`ravonlik ko`rsatadigan fosiq va kofirlardir. Yuqorida aytib o`tilganidek , bu ikki toifaning gunohi barobardir. Ahmad Yassaviy esa bu zulmparvar insonlar uchun quyidagi hikmatni aytadi :

G`arib, faqir, yetimlarni qilg`il shodmon

Haqlar qilib aziz joning ayla qurban.

Taom topsang , joning bila qilg`il ehson

Haqdin eshitib , bu so`zlarni aytdim mano.

(45-bet)

Shunday ekan , kishi uchun ham faqirlilik farzdir. Chunki faqirlikda katta tarbiya va mashaqqatlar bor. Zero , Payg`ambarimiz (s.a.v) bir muborak hadisi shariflarida shunday deganlar :"Dunyoda g`arib , begona kabi bo`l !" Dunyoda g`arib kabi bo`lmoq bu nafsni mag`lub qilmoq va komillikka intilmoqlikdir. Ular siniq ko`ngil egasi , ularning zulm tig`idan yaralangan , siniq qalblariga malham bo`lmoqlik musulmon banda uchun farz qilingan. Yassafiy bu farz amalni o`z hikmatida juda xalqchil, sodda va ravon usulda tasvirlab yozadi :

Qayda ko`rsang ko`ngli siniq marham bo`lg`il ,

Andoq mazlum yo`lda qolsa hamdam bo`lg`il. (41-bet)

Xo`ja Ahmad Yassaviy umr bo`yi mazlumlar , yetim , g`arib va faqirlarni himoya qildi , o`z halqasiga oldi. Doim adolat tomonida turib , poraxo`rlik, hirs-u hasad , jaholatni qattiq tanqid qildi. Uning she'riyati eng xalqchil va xalqsevar , xalqparvar she'riyatdir. "Devoni hikmat" kitobi esa komil inson

fazilatlarini shakllantiruvchi didaktik asar bo`ldi. Uning g`oyalari insoniyat qozongan eng ardoqli g`oyalalar qatorida abadiy yashab kelmoqda. Chunki Ahmad Yassaviy hikmatlarini diyonat ziyosi va iymon shafqati ichdan nurlantirib turadi. Uning hikmatlarida qalbning eng chuqr joylarigacha nazar tashlangan va ko`ngilning nozik torlari chertib o`tilgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1991 , - 255 b.
2. Muhammad al- Jazariy. Tasavvuf sirlari. – Tosh.: “Movarounnahr”, 2000, - 100 b.
3. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. – T. : G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti , 1996, - 270 b.